



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-mart

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 1226,3 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,3 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush: transport xizmatlari (26,1%), savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 23,6%), moliyaviy xizmatlar (16,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3%) hissasiga to'g'ri keldi.


2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Ma'lumot uchun: 2018 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 970,6 mlrd. So'mga teng bo'lgan.

2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 255,7 mlrd.so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2019 yil yanvar-fevral oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 434,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

2019 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (110,4 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (97,8 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (69,8 mlrd. so'mga) ham da aloqa va axborotlashtirish (26,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan birihisoblanadi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar
kesimida xizmatlar ishlab chiqarish**


	Hajmi mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1226,3	116,3
Nukus sh	772,6	118,5
Amudaryo	39,2	106,4
Beruniy	41,4	106,2
Qorao'zak	9,9	106,8
Kegeyli	12,9	106,8
Qo'ng'irot	148,0	127,4
Qonliko'l	11,0	106,6
Mo'ynoq	4,2	106,8
Nukus t.	11,5	107,0
Taxiatosh	9,6	115,3
Taxtako'pir	10,5	106,6
To'rtko'l	44,8	107,2
Xo'jayli	50,5	107,3
Chimboy	19,0	105,3
Shumanay	9,5	106,9
Ellikqal'a	31,7	106,7

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Nukus sh. (772,6 mlrd.so'm), Qo'ng'irot (148,0 mlrd.so'm), Xo'jayli (50,5 mln.so'm), To'rtko'l (44,8 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mo'ynoq (4,2 mlrd.so'm) tumanida kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan, 2019 yil yanvar-mart oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'iro't (127,4 %), Taxiato'sh (115,3 %) tumanlari va Nukus sh. (118,5 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Chimboy (105,3 %), Beruniy (106,2 %) va Amudaryo (106,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha jami xizmatlar hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Nukus shahri (63,0 %), Qo'ng'iro't (12,1 %) va Xo'jayli (4,1 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mo'ynoq (0,3 %), Shumanay (0,8 %) Taxiatosh (0,8 %), Qarao'zak (0,8%), Taxtako'pir (0,9 %) Nukus (0,9%) va Qanli'ko'l (0,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 654,9 ming so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish 14,6 % ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar–mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari, ming so'm



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida - 2448,0 ming.so'm qayd etildi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Taxiatosh tumanida - 131,0 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'ng'iro't tumanida - 125,9 % kuzatildi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1226,3	116,3
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	77,3	97,8
moliyaviy xizmatlar	204,9	174,0
transport xizmatlari	320,4	112,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	172,5	101,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	37,5	102,4
savdo xizmatlari	289,7	106,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	41,5	100,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	71,6	126,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	13,0	100,7
ijara xizmatlari	29,5	109,5
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	37,9	101,6
shaxsiy xizmatlar	48,0	107,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,1	160,0
boshqa xizmatlar	34,9	101,8

2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



- | | | | |
|----------|---------------------------------------|-----------|--|
| 1 | Xizmatlar - jami | 8 | Ta'lim sohasidagi xizmatlar |
| 2 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 9 | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 3 | Moliyaviy xizmatlar | 10 | Ijara xizmatlari |
| 4 | Transport xizmatlari | 11 | Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| 5 | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 12 | Shaxsiy xizmatlar |
| 6 | Savdo xizmatlari | 13 | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar |
| 7 | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 14 | Boshqa xizmatlar |

2019 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (74,0 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (60,0 %); Ta'lim sohasidagi xizmatlar (26,1%); transport xizmatlari (12,3 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	26,1%
Savdo xizmatlari	23,6%
Moliyaviy xizmatlar	16,7%
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,3%
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,8%
Shaxsiy xizmatlar	3,9%
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4%
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,1%
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,1%
Boshqa xizmatlar	2,9%
Ijara xizmatlari	2,4%
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,6%
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1%

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (26,1 %), savdo xizmatlari (23,6 %), moliyaviy xizmatlar (16,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	320,4 mlrd.so'm
	Savdo xizmatlari	289,7 mlrd.so'm
	Moliyaviy xizmatlar	204,9 mlrd.so'm
	Boshqa xizmatlar	97,5 mlrd.so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	77,3 mlrd.so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	71,6 mlrd.so'm
	Shaxsiy xizmatlar	48,0 mlrd.so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	41,5 mlrd.so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	37,9 mlrd.so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	37,5 mlrd.so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (320,4 mlrd.so'm), savdo xizmatlari (289,7 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (204,9 mlrd.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (77,3 mlrd.so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2019 yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 289,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 23,6 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 77,4 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 14,3 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 8,3 % ni egallaydi.

2019 yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2019 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (124,3 mlrd.so'm), Xo'jayli (29,3 mlrd.so'm) va Beruniy (22,3 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Mo'ynoq (1,3 mlrd.so'm) tumanida qayd etildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 289,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,1%.


2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Taqi'atosh (121,0%) va Xo'jayli (106,1%) tumanlarida va Nukus sh. (107,8%).

Eng kam o'sish sur'ati Chimboy (101,5%) tumanida qayd etildi.


2019 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, %



Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Nukus shahri (42,9%) va Xo'jayli (10,1%) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mo'ynoq (0,5 %) va Shumanay (1,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 320,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3%



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida - 136,4 mlrd.so'm va Qo'ng'iro't tumanida - 116,1 mlrd.so'm qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Mo'ynoq tumanida - 0,7 mlrd. so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'ng'iro't tumanida - 33,7 % kuzatildi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil choratadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019 yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 204,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 174,0 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Tajibekov
(71)230-82-15